

## **Talabalar Muqimiyl teatrda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 5 muhim tashabbusining birinchi tashabbusi doirasida joriy yilning 2-fevral kuni institutimizning 300 ga yaqin faol talabalari poytaxtimizda joylashgan "Muqumiy" nomidagi musiqali teatrga tashrif buyurishdi. Talaba-yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni teatr, musiqa va san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish tashrifdan ko'zlangan maqsad edi. Tashrif davomida talabalarimiz teatr binosi bilan yaqindan tanishdilar. Teatr foyesi va zallarining milliy a'analarimizga xos tarzda bezatilgani, naqshinkor devorlar va ustunlarning binoga o'zgacha ko'rak va tarovat berib turgani ularda hayratlanish hissini uyg'otdi. Shuningdek, talabalar Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tgan kunlar" romani asosida sahnalashtirilgan "Otabek va Kumushbibi" spektaklini maroq bilan tomosha qilishdi hamda olam-olam ta'surotlar olishdi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**